



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING DARS JARAYONIDAGI O‘RNI

Sharipova Sarvinoz Sayfiddin qizi

SamDCHTI o‘qituvchisi

Sulaymonova Jasmina Asliddin qizi

SamDCHTI ingliz tili fakulteti

1-bosqich talabasi

@jasminasulaymonova177@gmail.com

Annotatsiya: Bilamizki, raqamli texnologiyalar bugungi kunda har bir sohaga kirib bormoqda. Jumladan, ta’lim bilan integratsiyallashuvi dars sifatini oshirishga hamda internet tarmog‘i orqali eng yangi ma'lumotlarni topishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, dars jarayonlarida kompyuter texnologiyasidan foydalanish, sifatli va qiziqarli dars mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari, motivatsiyasi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, texnologiya, o‘quvchilar, davlat.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim jarayoni tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy o‘quv metodlari o‘rnini asta sekin innovatsion raqamli vositalar egallab, dars jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Kompyuter, planshet, smartfon, interaktiv doska, onlayn platformalar va mobil ilovalar kabi texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qulay, tezkor va interaktiv shaklga keltirmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta’limda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish tezligini oshiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va motivatsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular o‘qituvchilarga darsni individual yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga moslashtirilgan topshiriqlarni berish imkoniyatini yaratadi.

Bunga yurtimizda qabul qilanayotgan Qonunlar va boshqa hujjatlar sabab bo‘lmoqda desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga samarali



tatbiq qilish, milliy iqtisodiy tarmoqlarini raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Bilamizki, raqamli texnologiyalar o'quvchining diqqatini tortadi, darsga bo'lgan qizishini orttiradi. Zamon bilan hamnafas bo'lish, yoshlarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash esa jamiyatning asosiy vazifalaridan bir hisoblanadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi" deb ta'kidlagan.

Yuqoridagi fikrda yetarlicha asoslar mavjud. Masalan, o'qituvchi bir mavzuni tushuntirmoqda, lekin o'quvchilar yaxshi tushunmayapti. Agar o'qituvchi mavzuni tushuntirib bo'lib, dars so'ngida mavzuga aloqador biror video qo'yib bersa, o'quvchilar bo'layotgan voqeni ko'z oldida gavdalantirib, mavzuni yaxshi tushunadi, uzoq muddat xotirasida qoladi.

Endi texnologiyalarning afzaliklariga ham to'xtalsak. Ularning ham afzalliklari birqancha hisoblanadi:

- Talabalar bilan faollik darajasini oshirish: raqamli qurollar orqali (masalan, interaktiv dasturlar, onlayn testlar, multimedia manbalar) talabaning darsga ishtiroki kuchayadi.

- Shaxsiylashtirilgan o'rganish: har bir talabaning ehtiyojiga mos ravishda o'quv resurslarini tanlash imkoniyati paydo bo'ladi — bu esa differensiallashtirilgan o'qitishga zamin yaratadi.

- Resurslarga kengroq kirish: Internet va bulutli xizmatlar orqali darsliklar, videolar, interaktiv mashqlar talabalarga uyda yoki maktabda teng darajada taqdim etilishi mumkin.

- Zamonaviy axborot jamiyati talablariga tayyorlik: Talabalar raqamli ko'nikmalarni rivojlantiradi, bu esa ularni kelajakdagi ish bozorida raqobatbardosh qiladi.

Ayniqsa, texnologiyalar pandemiya davrida sezilarli darajada o'sdi. O'sha paytlari televizorlar orqali onlayn ta'lim berildi, bunda ularning asosiy yordamchisi zamonaviy ekran va kompyuterlar bo'ldi va hammaqa manzur bo'ldi, deb aytsak mubolaga bo'lmaydi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilm maskanlarini (maktabgacha ta'lim, maktab, kollej, litsey, oliygoh) sifatli texnologiyalar bilan ta'minlash asosiy vazifa qilib belgilandi. Raqamli texnologiyalar va ta'lim shu darajada muhimligi uchun Shavkat Mirziyoyev 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" deb belgilagan. Yana yurtimizda Prezident maktablari tashkil etildi va ko'plar texnologiyalar bilan ta'minlandi.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida nafaqat qo'shimcha vosita, balki samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Kompyuter, planshet, smartfon,



interaktiv doska va onlayn platformalar kabi vositalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini tezkor, qulay va interaktiv shaklga keltiradi.

Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish, motivatsiyani kuchaytirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, ular o'qituvchilarga individual yondashuvni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bois, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa bo'lib, u o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish va ta'lim jarayonini innovatsion tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.T. Yuldasheva, Akmalova N. B. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni. International scientific and practical conference "New methods and innovations in the integration of disciplines of mathematics and information technology", 2025.
1. N. Mirzahmedova. "Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 5-2, 2022, pp. 538-545. doi:10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545.
2. Tillaquldieva M. X. Raqamli texnologiyalar: mohiyati va o'ziga xosligi. Zenodo, 2023. DOI:10.5281/zenodo.8354742
<https://zenodo.org/records/8354742>